

GULRUH TURSUNOVA


**HUR
VATANNING
QIZIMAN**

Qarshi
«Nasaf» nashriyoti
2005

84(55)6-5 Ўзбек библиотека
— Шеърлар

**Yosh qaiamkash Gulruh Tursunova mazkur
«Hur Vatanning qiziman» nomli kitobida
tug'ilib o'sgan yurtiga bo'lgan muhabbati
hamda bolalikning rangin dunyosini sodda
va beg'ubor she'riy misralarda ifoda etgan.**

32317
H 0 0



T 4702620202-63
376(11) 2005 63-2005 © G.Tursunova, 2005-y.

ISBN 5-7323-0506-8

GULG'UHCHALAR MIZ

Yurtboshimiz quyosh bo'lsa,
Biz charog'on yulduzlar mis.
Nurlaridan bahra olib
O'suvchi gulg'unchalarmiz.

G'amxo'rimiz, suyanchimiz -
Yurtboshimiz omon bo'lsin.
Bizlar o'ynab, shod o'saylik,
Vatan, bag'ring nurga to'lsin.



VATANIM - ONAM

Vatan, sen-chun har narsaga tayyorman,
Kerak bo'lsa hatto jondan kechurman.
Tuprog'ingni ko'zga surtib bir umr,
Ostonangga mehrim gulin ekurman.

O'zbekiston - sensan mening Vatanim,
Onam kabi mehri issiq quyoshim.
O'sayapman kamol topib bag'ringda,
Asray seni toki omon bu boshim.



MUSTAQIL YURT FARZANDLARIMIZ

Baxtiyormiz, mustaqil yurt farzandimiz,
Bayrog'ingni yuksaklarga ko'taramiz.
Yurtim, sening kelajaging - biz yoshlarmiz,
Zo'r g'ayratmiz, cho'llaringni yashnatamiz.

Quchog'ingni gullatamiz chechak bilan,
Dalalaring to'ldiramiz bug'doy bilan.
Paxtalaring ko'taramiz yuksaklarga,
Binolaring qad ko'tarar osmonlarga.

O'zbekiston farzandingman juda baxtli,
Humo qushing parvoz qilsin osmoningda.
Madhiyangni kuylay doim quchog'ingda,
Tinch bo'lgin sen, bo'lgin omon baxtimizga.



O'ZBEKISTON

O'zbekiston - vatanim,
O'zingsan qo'sh qanotim.
Seni dildan kuylayman,
Tinchligingni asrayman.

Humo qushing parvona,
Posbonlaring mardona.
Mustaqil yurt, yagona -
O'zbekiston, ey, ona.



USTOZ

Siz tengi yo'q dunyoda,
Ilm-fanda, aqlda.
Ustozim, siz tanhosiz,
Mehrim sizga ziyoda.

Yosh avlod kamoli-chun,
Har dam hushyor o'zingiz.
Yaxshi niyat qalblarda,
Muqaddas har so'zingiz.

Tengi yo'qsiz men uchun,
Ustozim, yagonasiz.
Sizga mehrim ziyoda,
Mehribon ustozimsiz.



DADAJONIMGA

Oilamiz suyanchi -
Dadajonim, o'zingiz.
Quvonchimiz sevinchi -
Dadajonim, o'zingiz.
Har ishimiz olqishlaysiz,
Har dam bizni o'ylaysiz.
Bizga juda mehribonsiz,
Dadajonim, o'zingiz.
Orzularim yuksak hali,
Madadkorim o'zingiz.
Baxtimizga bo'ling omon,
Dadajonim o'zingiz.



O'ZBEK QIZLARI

O'zbegimning qizlari go'zal, hayoli,
Kamon qoshli, ko'zları juda iboli.
Nafosatda har kimni maftun aylagay,
Hayo bilan boqishi dilni boylagay.

Betakror liboslari hayron, lol etar,
Shoyi ham atlaslari elga tanitar.
Gapirganda ma'noli erur so'zları,
O'z nomiga yarashgan o'zbek qizlari.



MAHALLAMIZ KELINCHAGI

Qo'shni uyga kelin keldi paranjida,
Hovli to'la shodlik bo'ldi, kuy avjida.
Kelin turar kuyov bola uy to'rida,
Salom berar mehr bilan qalb qo'rida.

Oppoq harir liboslari bir yarashgan,
Husni esa ko'kdagi oy-la talashgan.
Niyati pok, orzulari - belanchagi,
Ana shunday mahallamiz kelinchagi.



UKAMGA

Jajji ukam Quvonchbek
To'ldi endi ikkiga.
Qiliqlari o'xshamaydi
Sira ham bir-biriga.
Erta tongdan turib olib,
Sira tinchlik bermaydi.
Qaynoq choyga oq qand solib,
Erib ketsa yig'laydi.



BIRINCHI QO'NG'IROQ

Qo'ng'iroqni jaranglating, aziz do'stlar,
Hayajonu sevinchlarga to'lsin dillar.
Bu jonajon mактабимиз qo'ng'iroq'i,
Har sadosi chorlaguvchi, har yangrog'i.

Jarangi-la barcha dilni entiktirar,
Oshiqadi bolajonlar maktab tomon.
Ustozlar ham ko'ngli bu kun shodga to'lar,
Shogirdlarin ko'rganidan sog'u omon.



BAHOROV

Erta turib, salom berib,
Bahoroyni kutib oldim.
Sevinch ila unga boqib,
Go'zallikdan bahra oldim.

Atrof ko'm-ko'k, do'nglik esa
Lola, qizg'aldoqqa to'la.
Havas bilan boqdim o'zim,
Lov-lov yonib ketdi ko'zim.

Chehram quyosh kabi porlab
Ilhomlarim jo'shib ketdi.
Bahoroyim, senga boqib,
Gulruh qizing she'rlar bitdi.



MUBORAK BO'LSIN

Do'stim, bugun tug'ilgan kuning-
Muchal to'ying muborak bo'lsin.
Labda kulgu, dilingda sevinch,
Quvonchlarining muborak bo'lsin.

Kirding bugun o'n ikki yoshga,
Tug'ilgan kun muborak bo'lsin.
Ko'zlarining hech to'lmasin yoshga,
Muchal to'ying muborak bo'lsin.



BOLALIK


Tog'lardagi boychechak,
Shabnamlarga cho'milgan.
Tabiatning gulimiz -
Iforlarga ko'milgan.

Keng bu jahon bizniki,
Bo'limas bizga hech ham tor.
Chunki bizda beg'ubor,
Eng go'zal bolalik bor.



KULCHA NON

Tog'oraga un solib,
Kulchaga xamir qordim.
Ichi jizzali bo'ldi,
Juda mazali bo'ldi.
Kulcha chiroyli pishdi,
Barchaga juda yoqdi.
Bobomdan duo oldim,
Bir olam quvonch oldim.



MEN TUG'ILGAN KUN

Men tug'ildim tabiatning
Eng ajoyib faslida.
Olam yashil, gulga to'lgan,
Bulbul kuyi avjida.

Beg'ubordir bahor oyim -
Tabiat kelinchagi.
Meni qutlar boychechagim-
Bahorning ilk chechagi.

Dugonalar ham qutlashar,
Sevinchlari bir jahon.
Deyishadi menga ular:
G'am ko'rmagin hech qachon.



20.06.00	Alisher Navciy nomidagi
20.06.9052	Alisher Navciy nomidagi O'zbekiston M

QORBOBOMIZ TABRIGI

Maktabimiz hovlisida
Go'zal bir archa.
Rang-barang chiroqlari
Zavq berar bizga.

Qorbobomiz keldilar
Sovg'alar bilan.
Bizni tabrikladilar,
Yangi yil bilan.



MUNDARIJA

Gulg'unchalarmiz.....	3
Vatanim-onam.....	4
Mustaqil yurt farzandlarimiz.....	5
O'zbekiston.....	6
Ustoz.....	7
Dadajonimga.....	8
O'zbek qizlari.....	9
Mahallamiz kelinchagi.....	10
Ukamga.....	11
Birinchi qo'ng'iroq.....	12
Bahoroy.....	13
Muborak bo'lsin.....	14
Bolalik.....	15
Kulcha non.....	16
Men tug'ilgan kun.....	17
Qorbobomiz tabrigi.....	18

ADABIY-BADIY NASHR

TURSUNOVA GULRUH

HUR VATANNING QIZIMAN

She'rlar

O'zbek tilida

Muharrir: Sh.Pirmatova.

Texnik muharrir: Ch.Rahmonov.

IB 0895

Terishga 1.11.2005-yilda berildi. Bosishga 18.11.2005-yilda ruxsat etildi. Bichimi $84 \times 108 \frac{1}{2}$. Sharqli bosma tabog'i 1,05. Sharqli bo'yoyqottisk 1,11. Nashr tabog'i 0,30. 92-2005-shartnoma. 202-buyurtma. 200 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Qashqadaryo viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi
huzuridagi "Matbaa" sexida chop etildi.